

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlarini	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nohiziqi tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyofasi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarining o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

TARIH

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

INTELLEKTUAL MULK: TARIXI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA TAJRIBA
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ: ИСТОРИЯ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ОПЫТ
INTELLECTUAL PROPERTY: HISTORY, DEVELOPMENT STAGES AND EXPERIENCE

Abdusattarova Nargiza Baxtiyorovna¹

¹Abdusattarova Nargiza Baxtiyorovna

– O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz kichik ilmiy xodim

Annotatsiya

Mazkur maqolada intellektual mulk sohasini rivojlantirish, intellektual mulk obyektlari muhofazasi, ixtiro, kashfiyot va sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari qo‘llab-quvvatlanishi, intellektual mulk huquqining shakllanishi va hozirgi holati tahlilga tortilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется развитие сферы интеллектуальной собственности, охраны объектов интеллектуальной собственности, изобретений, открытий и промышленных образцов, поддержки селекционных достижений, формирования и современного состояния прав интеллектуальной собственности.

Abstract

This article analyzes the development of the field of intellectual property, protection of intellectual property objects, invention, discovery and industrial design, support of breeding achievements, the formation and current state of intellectual property rights.

Kalit so‘zlar: *Intellektual mulk huquqi, intellektual mulk obyektlari muhofazasi, mualliflik huquqi*

Ключевые слова: *право интеллектуальной собственности, охрана объектов интеллектуальной собственности, авторское право.*

Key words: *intellectual property right, protection of intellectual property objects, copyright*

KIRISH

Har qanday mamlakat taraqqiyoti va jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni intellektual mulk sohasini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Qaysi mamlakatda intellektual mulk obyektlari muhofazasi oqilona yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, ixtiro, kashfiyot va sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari qo‘llab-quvvatlansa, rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilsa, u joyda yutuq va muvaffaqiyat salmog‘i ham yuqori darajada bo‘ladi.

Bugungi zamonaviy dunyoda intellektual mulk himoyasini ta‘minlash juda muhim. Davlat taraqqiyoti darajasi ushbu mamlakat fuqarolarining intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda intellektual mulk muhofazasiga katta e‘tibor qaratiladi. Unda inson kapitalidan samarali foydalanish, yaratilgan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish jarayoniga keng joriy etish va intellektual mulk sohasini iqtisodiyotning eng rivojlangan tarmoqlaridan biriga aylantirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Ilmiy maqolaning maqsadi mustaqillik yillarida O‘zbekistonda intellektual mulk tizimining shakllanish bosqichlari, tarixini yoritish hamda bu sohada xoriy tajribasini o‘rganishdan iboratdir.

Intellektual mulkning shakllanish evolyutsiyasi

Intellektual mulk huquqining shakllanishi uzoq tarixga ega. Ijod, aqliy faoliyatning bir turi sifatida bir necha ming yillar oldin paydo bo‘lgan. Zamonaviy odamning ajdodlari g‘orlarda rasmlar chizishgan, toshlarga esa harflarni (petrogliflar) yozib qoldirishgan. Bizgacha yetib kelgan manbalarga asoslanib aytish kerakki, antik va o‘rta asrlarda ijodiy faoliyat yoki intellektual faoliyat o‘zini yorqin namoyon qilganini ko‘rish mumkin. Yaratilgan Ko‘pgina arxitektura va san‘at asarlari yaratilgan, keyinchalik ular noyob va durdona asarlar sifatida YUNESKOning butunjahon merosi ruyxatiga ham kiritilgan. Masalan, Knossk saroyining freskalari, Kyoln sobori, rassom Rafaelning «Sikstin Madonnasi» kartinalari va h.k.).

TARIX

Shaxsiy yoki mulkiy mualliflik huquqlari bo'lmagan, adabiy asarlarni yoki boshqa ixtirolar qonun bilan himoya qilinmas edi. Rassomlar o'z ismini kartinalari pastiga, memorlar binolarning jabhalariga yozib qoldirishgan.

Qo'lyozmalar va keyinchalik kitob shaklida chop qilingan asarlarning birinchi betiga muallifning ismi sharifi yozib borilishi an'anaga aylanib borgan. Bu davrda har qanday shaxs muallifga to'lovsiz va ruxsatisiz kitoblardan nusxa olishi, xattoki o'z nomidan uni qaytadan chop qilishi ham oddiy holat edi.

Bu jarayon intellektual mulkka bo'lgan munosabat, uni muhofaza qilish tizimining ilk kurtaklari paydo bo'lishi bilan o'zgara boshladi. Buni bir necha bosqichlarga bo'lib yoritish mumkin.

Birinchi bosqich bu - qadimgi dunyoda adabiyot va san'at rivojlana borishi bilan vujudga kela boshlagan. Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim hukumatlari mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardan ruxsatsiz foydalanishni ta'qiqlovchi ilk qonunlar qabul qilingan. Shu davrlardayoq intellektual mulk obyektlarini, asarlarni himoya qilish davlat tomonidan muhofaza qilina boshlagan. Alohida e'tibor berish kerakki, yaratilgan asarlarning qo'lyozma nusxalari maxsus bino(arxiv)larda saqlangan"[1].

Ikkinchi bosqich - O'rta asrlarda Yevropada intellektual mulkka oid normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilina boshlanishi bilan boshlanadi. O'sha davrda sanoatning turli sohalaridagi hunarmandlar uyushmalariga sanoat tarmoqlari ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning faoliyat yo'nalishlarini belgilash vakolati davlat organlari tomonidan berilgan edi.

Bu borada olimlarning turli fikrlari mavjud. Masalan, A. G. Antonovichning ta'kidlashicha, mualliflik huquqiga egalik imtiyozini beruvchi qonunchilik kurtaklarining paydo bo'lishi o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Bu imtiyozlar ixtiro yoki kitob mualliflariga yaratgan kitobi uchun mutlaq huquqini berishni nazarda tutadi. Birinchilardan bunday imtiyozlar Venetsiyada (1491 y.), so'ngra Mediolanda (1495 y.), Fransiyada (1507 y.), Angliyada (1518 y.) nashriyotlarga berilgan. Angliyada 1643-y. va 1662-yil qonunlariga asosan kitob ustaxonasi tashkil qilina boshlaydi hamda bu kitoblarga mualliflarning ismlari yozilib borilgan, ularni qayta chop qilinishi ham nazoratga olina boshlagan edi. Demak, nafaqat intellektual mulkka oid normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi, balki kitob chop qiladigan ustaxonalar paydo bo'lishi ham bu bosqichning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bu davrda intellektual mulk egalari yangi imkoniyatlar yaratib beriladi.

Uchinchi bosqich bu XII-XIV asrlarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu davr patent xatlari paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Yangi texnologiyalar, ularning mualliflari, ixtirochining huquqlari to'g'risida jamoatchilik yorliqlar, "ochiq xatlar" orqali boxabar bo'lish imkoniyati yaratiladi. Bunday harakatlar ixtiro egasining nomi, uning ijodi, yaratgan mahsuloti yoki texnologiyasining mualliflik huquqini himoya qilishga qaratilgan urinishlar edi. Bungacha ixtirochilarga turlicha imtiyozlar joriy qilingan bo'lsada, bu berilgan imtiyozlar esa ixtirochiga turli darajada ijtimoiy-iqtisodiy qulayliklar yaratishi bilan muhim hisoblanadi. Xususan, ixtirochiga berilgan imtiyozlardan biri bu ixtiro egasini soliqlardan ozod qilinishi hisoblanadi. Ilk imtiyozlar esa ishlab chiqarish va hunarmandchilikda yangiliklardan foydalanish huquqi edi[2,7-10].

To'rtinchi bosqich XV asrda matbaa ixtiro qilinishi, shuningdek, **XVI asr o'rtalarida ilk manufakturalar** paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'ldi. Endilikda, vaziyat biroz o'zgarib, adabiy-badiiy asarlarni tez va arzon narxlarda ko'paytirish, ularni xo'jalik muomalasiga kiritish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu davrning o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'ldiki, ixtirochilik faoliyatiga munosabat ham tubdan o'zgardi. Ishlab chiqaruvchilar texnik yangiliklarni ishlab chiqarishga o'z vaqtida joriy etish raqobatchilarga qarshi kurashda sezilarli afzalliklarga olib kelishini tushunishdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, ixtiro va kashfiyotlarni patentlash tizimi ilk bora Angliyada XVII asrdan boshlab amal qila boshladi. 1624-yildan boshlab qirol tomonidan import texnologiyaga asoslangan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi shaxslarga alohida imtiyozlar - patentlar berish belgilana boshladi. Natijada yangi texnologiyani qo'llayotgan shaxslar uni o'zlashtirish uchun ketadigan uzoq muddat davomida bu texnologiyadan foydalanishda mutlaq huquqlarga ega bo'lganligi muhim ahamiyatga kasb etdi. Mutlaq huquq natijasida patent sohibi yangi mahsulot ishlab chiqargani uchun rag'batlantirish maqsadlarida raqobat kurashida ba'zi imtiyozlardan ham foydalana boshlagan"[3,8].

Beshinchi bosqichda, ya'ni XVII- XVIII asrlarda mualliflik huquki **mustaqil institut** sifatida shakllanishi bilan bog'liq bo'ldi. Bunga birinchidan, XVII asr oxirlarida Angliyada qirolicha Anna

Statutlarida ilk bora asar muallifining yaratgan asariga mutlaq huquqlari mustahkamlab ko'yilishi bo'lsa, ikkinchidan kitob bosishning ixtiro qilinishi ham asos bo'ldi desa bo'ladi. Uchinchidan, shu paytning o'zida Fransiyada patent Qonuni qabul qilinishi ham turki bo'ldi.

XVIII asr boshlarida Yevropada va XVIII-asr oxiri -XIX-asr boshlarida Rossiyada imtiyozlar berish asta-sekin yo'qolib bordi. Bu vaqtga kelib uning o'rniga birinchi mualliflik huquqini himoya qiluvchi qonunlarni qabul qilish boshlandi. Angliyada 1710-yilda Styuart sulolasiga mansub bo'lgan qirolicha Annaning yuridik adabiyotlarda Qirolicha Anna Statut(Nizomi)lari nomi bilan mashhur bo'lgan qonun qabul qilinadi. Bu Nizom tom ma'noda mualliflik huquqi haqidagi qonun emas edi, chunki unda "mualliflik huquqi" to'g'risidagi tushuncha yo'q edi. Lekin nizom mualliflarga va noshirlarning huquqlarini ilgari berilgan imtiyozlari tasdiqlab berilgani bilan ahamiyatli edi.

XVIII asrga kelib fransuz qonunlari badiiy asarlar mualliflariga ulardan foydalanishning **ajralmas hamda mutlaq huquqini doimiy** ravishda kafolatlatadi. Xususan, 1793 yilgi qonunga ko'ra muallifga butun umri davomida badiiy asarini takrorlash huquqi berildi. Mazkur huquq shartnoma va meros orqali o'tishi mumkin edi. Qonunga ko'ra, bu huquq muallifning hayoti davomida va vafotidan keyin 10 yil davomida himoyalangan bo'ldi.

Bu bosqichda G'arbda mualliflik huquqini himoya qilish g'oyalari keng tarqala boshladi. Masalan, AQSH til, qonun va qisman madaniyat jihatdan yaqinligi sababligi Buyuk Britaniya qonunchiligidagi mualliflik huquqini himoya qilish g'oyalarini o'zlashtira boshladi. XVIII asrning 80-yillarida turli shtatlarning mualliflik huquqiga oid qonunlar paydo bo'la boshladi.

Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'ldiki, XVIII asr oxirigacha ingliz sudyalari ixtirochiga monopolist sifatida qaragan bo'lsa, endilikda XVIII asr oxiriga kelib ixtirochining ixtiroga bo'lgan huquqi to'laqonli tan oлина boshladi. Shu tariqa Amerika sudyalari, 1787-yilgi konstitutsiya va 1791-yilgi Patent to'g'risidagi qonun qabul qilinganining dastlabki yillaridan boshlab patentni ixtirochining huquqiga asoslangan holda ko'rib chiqa boshladilar. Bu g'oyalar ta'sirida Germaniyada ham 1877-yilda muallifga patent huquqini kafolatlaydigan birinchi patent qonuni qabul qilindi.

Yevropa mamlakatlarida sanoatning rivojlanishi intellektual mulkni himoya qilish sohasida yangi qoidalar qabul qilinishiga turki bo'ldi. Turli mamlakatlarning qonunlarida ixtirolarga patent olish shartlari va imtiyozlar belgilab berila boshladi.

Masalan, Rossiyada imtiyozlar to'g'risidagi qonun 1812-yilda qabul qilingan. Keyinchalik, 1911-yilda Rossiyada mualliflik huquqi haqida Nizom ham tasdiqlanadi. Ushbu qoidalarni ishlab chiqarishga esa Yevropa davlatlarining qonunchiligi asos qilib olinadi. 1917-yildan boshlab mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarga 5 yilgacha davlat monopoliyasi joriy etildi. Bunda keyingi Rossiyadagi intellektual mulk huquqining yanada rivojlanishi uchun ushbu sohadagi xalqaro xujjatlarni ratifikatsiya qilish bilan bog'liq edi. Shunday qilib, bu bosqichning o'ziga xos xususiyati bu Rossiyada imtiyozlar XVIII asrdan boshlab berila boshlandi deya xulosa qilishga asoslar bor.

Shuningdek, bu davrda mualliflik huquqi terminologiyasining turli huquqiy tushunchalarining paydo bo'lishi 2 huquqiy tizimning mavjudligiga olib keladi. Bu anglo-sakson va romano-german. Anglo-sakson huquqiy tizimiga ega davlatlarda (Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH) mualliflik huquqi "ko'paytirish huquqi", "nusxa olish huquqi" degan ma'noni anglatadi, romano-german huquq tizimiga ega davlatlarda esa (Fransiya, Germaniya, Rossiya) muallif huquqi ko'proq mualliflik huquqi ma'nosida ishlatilgan.

Shu tariqa, bu bosqichda Yevropa va Amerika mamlakatlarida mualliflik huquqi va patent huquqi XVIII-XIX asrlarda qonunchilik va doktrinalar ta'sirida shakllanib bordi. XIX asrda bir qator xalqaro xujjatlar qabul qilindiki, ular hozirgi kunga qadar amal qilib kelmoqda.

- Oltinchi bosqichda, ya'ni XX asrning o'rtalarida intellektual faoliyatning ko'plab yangi natija va namunalari paydo bo'la boshladi. AQSHda 1964-yildan boshlab kompyuter dasturlari AQSH Mualliflik huquqi reyestrda ro'yxatdan o'tkazila boshlandi, 1961-yilda mikrosxemalar paydo bo'ldi, o'simlik navlarini huquqiy himoya qilishning paydo bo'lishi XX asrning 30-yillariga to'g'ri keldi.

- Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati bu XX asrdagi intellektual mulk huquqining rivojlanishida turli tendensiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. XX asrdagi intellektual mulk huquqining taraqqiy etish tarixidagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida halqaro huquq normalarini tartibga solishning rivojlanishini aytish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu davrda halqaro huquqni tartibga solishning rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

TARIX

- Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning hududiy chegaralarini yengib o'tishga qaratilgan xalqaro shartnomalar tuzish. Ular orqali chet el asarlarini himoya qilish ta'minlandi (1886-yildagi adabiy va san'at asarlarini himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi, 1952-yildagi mualliflik huquqi umumjahon konvensiyasi, 1961-yildagi ijrochilarni, fonogrammalarni ishlab chiqaruvchilarni va radioeshittirishlarni himoya qilish to'g'risidagi Rim konvensiyasiva boshq.);

turli mamlakatlarda milliy qonunlarni birlashtirish va intellektual mulk obyektlarini himoya qilish bo'yicha o'xshash qoidalarni joriy etishga qaratilgan xalqaro shartnomalar tuzish (masalan, sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha 1883-yildagi Parij konvensiyasi, 1994-yildagi Intellektual mulk huquqlarining savdo aspektlari to'g'risidagi bitim va boshq.);

bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlarda huquqiy himoya so'rovini osonlashtiradigan kelishuvlar (1970-yildagi Patent kooperatsiyasi shartnomasi, 1891-yildagi markalarni xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi Madrid kelishuviva boshqalar);

intellektual mulkni huquqiy himoya qilish sohasida yagona xalqaro siyosatni ta'minlaydigan xalqaro tashkilotlarni yaratish, xalqaro shartnomalarni boshqarish, xalqaro ro'yxatga olish tartib-qoidalarini amalga oshirish (Jahon intellektual mulkni himoya qilish tashkiloti, Yevropa patent idorasi va boshqalar).

Intellektual mulk huquqini yanada rivojlantirishning yana bir tendensiyasi, shubhasiz, huquqiy texnika va himoya mexanizmlarini takomillashtirish edi. YA'ni, obyektlarni muhofaza qilish shartlari, ularning ba'zilarini ro'yhatga olish tartiblari ishlab chiqildi, himoya qilishning eng ma'qul usullari aniqlandi, huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatiga va qo'riqlanadigan obyektning mohiyatiga mos kelishi (huquqbuzarni sudga berish, undan zararni undirish yoki huquq egasi foydasiga kompensatsiya qilish), mutlaq huquqlarni tasarruf etish bo'yicha shartnoma munosabatlari normalari kiritila boshladi.

Intellektual mulk sohasining rivojlanishida XX asrdagi eng muhim voqealardan biri 1967 yilda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ni ta'sis etish to'g'risida konvensiya qabul qilinishi va 1970-yil 26-apreldan boshlab konvensiya amal qila boshlashi bo'ldi. Mazkur konvensiyada intellektual mulk obyektlari tasnifi berilishi bilan birga, xalqaro tashkilotni tuzish, uning rahbar organlari va faoliyatining huquqiy-tashkiliy asoslari, davlatlarning a'zoligi masalalari ham belgilangan. Xususan, Konvensiyada tashkilotning asosiy organlari – Bosh Assambleya, Konferensiya, Muvofiqlashtiruvchi Qo'mita, Xalqaro Byuro faoliyati va tashkiliy-huquqiy asoslari yoritib berilgan.

1974-yilda BIMTga Birlashgan millatlar tashkilotining maxsus universal tashkiloti maqomi berildi. Shunga ko'ra 2000-yildan boshlab BIMTga a'zo davlatlarida "26-aprel – Xalqaro intellektual mulk kuni" sifatida nishonlanishga kelishildi. Ushbu bayram munosabati bilan butun dunyoda har yili turli tadbirlar tashkil etib kelinmoqda va bayram sanasi oldidan BIMT Bosh direktori dunyo hamjamiyatiga murojaat bilan chiqadi.

Bugungi kunda dunyoning 180 dan ortiq davlati BIMTning a'zosi hisoblanadi. O'zbekiston 1991 yilda BIMTning a'zosi bo'ldi va o'tgan davrda Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi, Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun Madrid bitimiga doir Bayonnoma va Protokoli, Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnoma, Tovar belgilariga oid qonunlar to'g'risida shartnoma, Patent huquqi to'g'risida shartnoma, O'simliklar yangi navlarini muhofaza qilishga oid xalqaro konvensiya, Patent tadbirlari maqsadlari uchun mikroorganizmlarni deponentlashtirishni xalqaro e'tirof etish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi, Belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovar va xizmatlarning xalqaro tasnifi to'g'risidagi Nitssa bitimi, Xalqaro patent tasnifi to'g'risidagi Strasburg bitimi, Sanoat namunalari xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risidagi Lokarno bitimi, Badiiy va adabiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi, Fonogramma tayyorlovchilarining manfaatlarini ularning fonogrammalarini noqonuniy takrorlanishidan muhofaza qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi, JIMTning ijro va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi, JIMTning mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi kabi xalqaro hujjatlarga a'zo bo'ldi.

Butunjahon intellektual mulk tashkilotining bosh qarorgohi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan bo'lib, u yerda muntazam intellektual mulk sohasini takomillashtirishga qaratilgan xalqaro darajadagi tadbirlar o'tkazib boriladi.

Yangi O'zbekiston: intellektual mulk muhofazasi davri

Intellektual mulkni himoya qilish yurt kelajagi va taraqqiyotiga daxldor bo'lib, u inson aql-idroki, ongu tafakkuri, ijodkorligi va qobiliyati bilan yuzaga keladigan bebaho xazinadir.

Darhaqiqat, hozirgi davrda intellektual mulk himoyasini ta'minlash muhim ahamiyat ega bo'lib bormoqda. Insonni aqliy mehnati mahsuli bo'lgan raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar mamlakat iqtisodiyotini asosiy harakatlantiruvchi kuchiga, juda serdaromad sohaga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda nomoddiy aktiv hisoblangan intellektual mulk kirib bormagan biror soha yoki tarmoq qolmadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo iqtisodida nomoddiy aktivlar ulushi 1975-yilda 17 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda esa 90 foizga ko'tarilib, ularning taxminiy qiymati 21 trillion AQSH dollarini tashkil etgan. Hozirda intellektual mulk Yevropada YAIMning 45 foizini, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 12-oktabrida intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda "Intellektual mulk masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarmas ekanmiz, O'zbekiston bundan o'n yildan keyin ham raqobatdosh bo'lmaydi" deb ta'kidlab o'tgani bejiz emas albatta. Tan olishimiz kerakki, keyingi yillarda mamlakatimizda intellektual mulkni himoya qilish hamda innovatsion faoliyat uchun zamonaviy infratuzilmani shakllantirish yo'nalishida qator amaliy chora-tadbirlar ko'rilayotganligiga qaramay, ixtirolar va kashfiyot namunalari tijoratlashtirish darajasi pastligi saqlanib qolmoqda.

Bu sohada hali qilinadigan ishlar talaygina. Bu borada Prezident: «Afsuski, mamlakatimiz bu borada dunyo bozoridan uzoqlashib ketdi. Na tegishli idoralar va na hudud rahbarlari intellektual mulk masalasiga e'tibor berdi. Shu sababli ixtirochi olim va ijodkorlarimiz xorijga chiqib ketdi. Ilmiy institutlarimiz innovatsiyalar, tarmoqlar esa xaridorgir ishlanma va brendlar yarata olgani yo'q. Bo'lgan taqdirda ham aksariyat ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari bo'yicha murojaatlar ilmiy ishni tezroq ro'yxatdan o'tkazib olish maqsadida qilinmoqda. Bu boradagi talablar ham eskirib qolgan», — deya ta'kidladi.

Darhaqiqat, bugun O'zbekistonda intellektual mulk O'zbekistonning iqtisodiyotida qancha foizni tashkil etishi, mualliflar va ixtirochilar qancha daromad olayotgani, ixtirolarning klasifikatsiyasi, tarixiy bosqichlari, evolyutsiyasi va hokazo kabi ma'lumotlar, shu o'rinda statistik ma'lumotlar shakllantirilmagan. Bilamizki, qachonki muallif o'zi yaratgan intellektual mulkdan foyda olishini, daromad qila olishini bilsa, unda rag'bat paydo bo'ladi. Natijada shu sohada rivojlanish bo'ladi.

XULOSA

Xulosada aytish kerakki, jahonda intellektual mulk mavzusini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar katta miqyosda olib borilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda ushbu sohaga juda kam murojaat qilingan. Ayniqsa, mamlakatimizdagi ijtimoiy-gumanitar sohalarda, intellektual mulk tarixini o'rganish kabi mavzular doirasida ilmiy izlanishlar deyarli olib borilmagan. Ammo, bugungi davrda jamiyatning ijtimoiylashuvi, inson eng oliy qadriyat tamoyilining ahamiyati oshib borishi, insonning intellektual potentsiali, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishiga ta'sir ko'rsatuvchi mazkur sohalarning intellektual mulk mavzusiga jiddiy e'tibor qaratishi, chuqur tahliliy ilmiy izlanishlar olib borilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu soha ilmiy o'rganishga, tahlillarga muhtoj bo'lib, olimlar oldida turgan dolzarb vazifa, desak mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://intels.ru/stati/istoriya-prava-intellektualnoj-sobstvennosti/>
2. Понкин И.В. История развития права интеллектуальной собственности. 125-бет.
3. Антонович А. Я. Курс государственного благоустройства (полицейского права). Часть первая. - Киев, типография В. И. Завадского, 1890. С. 335
4. Т. Л. Калачева, О. П. Попова. Интеллектуальная собственность под охраной закона. Монография. Хабаровск. 2018. Ст.7-10.
5. Оқюлов О. Интеллектуал мулк ҳуқуқи. - Тошкент., 2005. 8-бет.
6. Оқюлов О. Интеллектуал мулк ҳуқуқи. - Тошкент., 2005. 9-бет.
7. Ильницкий К. О. Правовой анализ становления и развития законодательства Великобритании об авторском праве//Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. - 2012. - № 1. - С. 133.

TARIX

8. М.Лабзин. Интеллектуальная собственность как история / Ссылка на источник://https://www.intellectpro.ru/press/works/iz_istorii_prava_intellektual_noy_sobstvennosti/ Опубликовано в Журнале «Патенты и лицензии. Интеллектуальные права», №3/2014
9. Шеленговский П.Г. История и современность интеллектуальных прав. Молодой учёный. №1 (24), январь, 2011.
10. Адабий ва бадий асарларни муҳофаза қилиш тўғрисида Берн конвенцияси // <https://lex.uz/docs/1310607>
11. Муаллифлик ҳуқуқи тўғрисидаги Бутунжаҳон Конвенцияси//[https://nrm.uz/contentf?doc=122762_muallifik_huquqi_to%E2%80%98g%E2%80%98risidagi_butunjahon_konvenciyasi_\(jeneva_1952_yil_6_sentyabr\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=122762_muallifik_huquqi_to%E2%80%98g%E2%80%98risidagi_butunjahon_konvenciyasi_(jeneva_1952_yil_6_sentyabr)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)
12. Фонограммаларни тайёрловчиларнинг манфаатларини уларнинг фонограммаларини ноқонуний такрорлашдан муҳофаза қилиш тўғрисидаги конвенция 1971 йил 29 октябрь, Женева// <https://lex.uz/docs/4319087>
13. Патент кооперацияси тўғрисида шартнома 1970 йил 19 июнь, Вашингтон (Ўзбекистон Республикаси учун 1991 йил 25 декабрдан кучга кирди)// <https://lex.uz/docs/2602762>
14. Мадрид Битими 1891йилнинг 14 апрелида имзоланган (1900 йилнинг 14 декабры Брюссельда, 1911йилнинг 2 июнида Вашингтонда, 1925 йилнинг 6 ноябрда Гаагада., 1934 йилнинг 2 июнида Лондонда, 1957 йилнинг 1 июнида Ниццада, 1967 йилнинг 14 июлида Стокгольмда қайта кўриб чиқилган).
15. https://www.intellectpro.ru/press/works/iz_istorii_prava_intellektual_noy_sobstvennosti/
16. Тошев Б. **Интеллектуал фаолият ва унинг ҳуқуқий ҳимояси**//<http://hudud24.uz/bugun-halqaro-intellektual-mulk-kuni/>
17. Тошев Б. **Интеллектуал фаолият ва унинг ҳуқуқий ҳимояси.** <http://hudud24.uz/bugun-halqaro-intellektual-mulk-kuni/>.
18. Янги Ўзбекистон онлайн рўзномаси.// <https://yuz.uz/news/intellektual-mulk--innovatsion-rivojlanishning-zaruriy-omili>.
19. Президент интеллектуал мулк муҳофазаси бўйича йиғилиш ўтказди. //<https://www.gazeta.uz/uz/2020/10/12/intellectual-property/>
20. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2020 йил 12 октябрь куни интеллектуал мулк объектларини муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари юзасидан йиғилишдаги маърузаси//<https://xs.uz/uzkr/post/ikhtirochi-olim-va-izhodkorlarimiz-khorizhga-chiqib-ketdi-shavkat-mirziyoev>